

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Ashurov</b>	
Yosh voleybolchilarning koordinatsion qobiliyatlarini oshirishda uslubiy yondashuvlar .....	106
<b>T.A.Julboyev</b>	
Kredit-modul tizimida anorganik kimyo o'quv fanida mustaqil ta'lidan esse yozish ko'nikmasini rivojlantirish.....	111
<b>C.Ф.Джафарзода</b>	
Некоторые парадоксы несоответствий результатов тестов "остаточных знаний" студента и учащихся в вузе в контексте выбора дидактических целей ценностно-содержательного управления временем.....	115
<b>A.M.Maxmudov</b>	
Yosh futbolchilarning umumiylari va maxsus jismoniy tayyorgarligini oshirish .....	124
<b>I.U.Nurmetova</b>	
Dzyudo bilan shug'ullanuvchi qizlarni tezkorlik sifatlarini rivojlantirishda texnik usullardan foydalanish .....	129
<b>U.R.Radjapov</b>	
Umumiy o'rta ta'limga muktabalaridagi 1- 2-sinf o'quvchilarida jismoniy sifatlarini milliy harakatlari o'yinlar orqali rivojlantirishni didaktik ahamiyati .....	136
<b>G.K.Yakubova, M.Mashrapova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'sish va rivojlanish qonuniyatları tahlili .....	141
<b>B.A.Rahimov</b>	
Yosh voleybolchilarni zamonaviy sport mutaxassisligiga yo'naltirishning samaradorligi .....	148
<b>N.V.Nosirov</b>	
Bo'lajak texnologik ta'limga o'qituvchilarida metodik kompetentsiyalarni rivojlantirishning muammolari va innovatsion usullari .....	154
<b>F.I.Sharipova</b>	
The development of reading literacy among future nurses .....	158
<b>L.X.Bektursinova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imijni shakllantirishning ayrim masalalari.....	164
<b>K.X.Абдувалиева</b>	
Некоторые аспекты интеграции заданий по химии в процессе обучения химии .....	169
<b>R.M.Ubaydullayev</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning jismoniy madaniyatini sport pedagogikasi vositasida rivojlantirish texnologiyasi .....	173
<b>M.M.Yuldashev</b>	
Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarida sog'lom turmush tarzini rivojlantirish texnologiyalari.....	180
<b>M.A.Suyunova</b>	
Maktabgacha ta'limga tashkiloti va oilada maktabgacha yoshgdagi bolalarda ekologik dunyoqarashni shakllantirish usullari.....	185
<b>M.X.Tillavoldiyeva</b>	
Raqamli texnologiyalar va ijtimoiy taraqqiyot o'rtasidagi aloqadorlik muammolari .....	190

## IQTISODIYOT

<b>O.Sh.Valiev</b>	
The nexus between fdi net inflows and doing business index: analysis from Uzbekistan .....	194

## FALSAFA

<b>A.A.Qambarov</b>	
Qur'on oyatlari hamda hadislarda keltirilgan "shukronalik" tushunchasining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	199
<b>S.U.Yuldashev</b>	
Jamiyatni ilmiy boshqarishning institutsional va funksional jihatlari .....	203
<b>G.N.Navro'zova</b>	
Shoh Naqshbandni tafsiflovchi yangi manbaa .....	207
<b>A.N.Sanaqulov</b>	
Ta'limga tizimida virtual reallikdan foydalanish istiqbollari .....	211



УО‘К: 297.2:17.024

**QUR’ON OYATLARI HAMDA HADISLARDA KELTIRILGAN “SHUKRONALIK”  
TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI**

**СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ «БЛАГОДАРНОСТЬ»,  
УПОМЯНУТОГО В АЯТАХ СВЯЩЕННОГО КОРАНА И ХАДИС-ШАРИФАХ**

**SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF "GRATITUDE" MENTIONED  
IN THE QURAN'S VERSES  
AND HADIS-SHARIFAH**

**Qambarov Abdumutal Axadjonovich**

Farg'ona davlat universiteti falsafa kafedrasi professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada “Shukronalik” tushunchasi va uning Qur'on oyatlari va Hadislarda keltirilgan fikrlarning ijtimoiy-falsafiy tahlili beriladi. Shuningdek, shukronalik insonni sabrli bo'lishiga hamda undagi yomon qusurlarning yo'q bo'lishiga yordam berishi yoriltiladi.

**Аннотация**

В данной статье проводится социально-философский анализ понятия «Благодарность» и его мыслей, представленных в аятах Священного Корана и хадисах. Также объясняется, что благодарность помогает человеку быть терпеливым и преодолевать свои плохие недостатки.

**Abstract**

This article provides a socio-philosophical analysis of the concept of "Gratitude" and its thoughts, presented in the verses of the Holy Quran and hadiths. It is also explained that gratitude helps a person to be patient and overcome their bad shortcomings.

**Kalit so'zlar:** Qur'on oyatlari, Hadis, shukronalik, ne'mat, tinchlik-osoyishtalik, ilm-ma'rifat, sog'lik, mol-davlat, farzand, qadr-qimmat, tinchlik-salomatlik, farovonlik.

**Ключевые слова:** аяты Корана, хадисы, благодарность, благословение, мир, знание, здоровье, богатство, ребенок, достоинство, мир, здоровье, благополучие.

**Key words:** verses of the Koran, hadiths, gratitude, blessing, peace, knowledge, health, wealth, child, dignity, peace, health, well-being.

**KIRISH**

Shukronalik – inson ziynati. Bugungi tinchlik-osoyishtalik, erkin va faravon hayotga shukrona keltirish, uning qadriga yetish xayru barakani yanada ziyoda qilishi Qur'on oyatlari va Hadislarda ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, o'zbek tilining izohli lug'atida ham “Shukronalik – shukr qilish, qanoatli va mammun xolat”ma'nosini anglatishi ko'rsatib o'tilgan.

Tinch-xotirjam hayot, farovon o'tayotgan kunlar qadriga yetish uchun shukrona aytish orqali, eng avvalo hushyor bo'lish lozimligi, qolaversa ana shu shukronalik ne'matidan ayirmoqchi bo'lgan g'arazli kuchlarga, noplak toifalarining nayranglaridan hamisha ogoh bo'lib, ularga munosib javob qaytarish uchun doimo hushyor turish kerak.

Bugungi kunda dunyoda bo'layotgan xunrezliklar, odamlarning bir-biriga qilayotgan insofsizliklari, ularning turli hiyla va aldonlarga aldanib, pirovardida oilasidan, yaqinlaridan, tinchligidan ajralib qolgan kishilar qismatiga nazar solsa bu kunlarga shukrona keltirish lozimligini anglab yetiladi. Shukrona aytish, ya'ni shukr qilish "...go'zal axloqlarning biri hisoblanadi. Imam G'azzoliy: "Chakmon insonga qanchalik yoqimli bo'lsa, hamd – hazrat shukr ham Allohga shunchalik yoqimlidir", degan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI**

Alloh insonni aql va idrok sohibi qilib yaratdi va unga behisob ne'matlarni ato qilib, ularidan bahramand qildi. Shu bilan bir qatorda O'zining ne'matlariiga shukr aytishga ham buyurib, “Ibrohim” surasining 7-oyatida shukr qiluvchilarga ne'matlarini yanada ziyoda qilish va'dasini berib, shunday

deydi: "Yana Rabbingiz e'lon qilgan (bu so'zlar)ni eslang: "Qasamki, agar (bergan ne'matlarimga) shukr qilsangiz, albatta, (ularni yanada) ziyoda qilurman". Shuningdek, "Niso" surasi 147-oyatida: "Agar shukr qilsangiz va imon keltirsangiz, Alloh sizni azoblab nima qiladi? Alloh shukrni qabul etuvchi va biluvchi zotdir", degan. "Baqara" surasi 152-oyatida esa: "Bas, Meni yod eting (Men ham) yod eturman. Menga shukr qiling, noshukrlik qilmang", degan. Bundan tashqari, Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan Hadisda ham: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kim Allohga shukr qilmasa, odamlarga ham tashakkur qilmaydi", - dedilar". Abu Dovud va Termiziyy rivoyat qilgan. Termiziyyning lafzida esa: "Odamlarga tashakkur qilmagan, Allohga shukr qilmaydi", - deyilgan.

Shukr qilish ne'mat beruvchi zotga maqtov so'zlarini aytish va ne'matni uni bergan zotning roziligi uchun ishlatish bilan bo'ladi. Ammo tili bilan shukr desa-yu, amali bilan Allohnинг aytganidan boshqani qilsa, kufroni ne'mat qilgan bo'ladi. Mo'min-musulmon doimo Allohn zikr etib, unga shukr qilgandagina, halol bo'lganida qilayotgan ishlari doimo ilgari bo'ladi. Bunda albatta, ota-onal shaxsiy namuna bo'lishi kerak. "Shaxsiy namuna inson ma'naviy-axloqiy qiyoqasining oliv ko'rinishi hisoblanadi".

Shukrona qilgan albatta savob oladi. Alloh unga beradigan ne'matlarini yanada ziyoda qiladi. Kufroni ne'mat qilgan odam esa, gunohkor bo'ladi va Alloh beradigan ne'matlarini uzib qo'yadi. Alloh bandasining shukr qilishiga ehtiyoji yo'q, u karamli va buyuk zotdir. Shukrona bildirish ne'mat beruvchi zotga maqtov so'zlarini aytish va u ne'matni Allohnинг roziligi yo'lida sarflashdan iborat. Berilgan ne'matga shukr etish insonning to'g'ri yo'lida mustahkam va muqim ekanini ko'rsatadi.

Shukr qiluvchi inson Alloh o'zini doim kuzatib turishini his etadi va ne'mat yetganda zohir bo'ladijan manmanlik, harom ishlarga berilish, shuhratparastlik, isrofgarchilikka yo'l qo'yish kabi salbiy holatlardan xoli bo'ladi. Natijada o'ziga berilgan ne'matlardan oqilona foydalanib, o'zidagi yomon qusurlardan holi bo'lib, yaxshi amallarni ko'paytiradi. Kufroni ne'matda bo'lish esa, uning Alloh tomonidan berilishini tan olmaslik, unga hamdu sano aytmaslik va ne'matni noma'qul yo'llarda ishlatishdan iboratdir. Yetgan ne'matga kufr etish uni bergan zotga – Allohga kufr keltirishdir. Bunday odamlar, ne'matni menga Alloh berdi, demaydi, balki, unga o'z ilmim, harakatim va ustaligim tufayli erishdim, deydi. Shu sababdan o'zlaridagi moddiy imkoniyatlarni haromga, kibrga berilish, manmanlik, shuhratparastlik va shunga o'xshash salbiy yo'llarga ishlatishadi. Natijada qattiq azobga uchrashadi. Holbuki, shukrona aytish bandaning o'ziga foya keltiradi. Alloh unga hojatmand emas. Abu Umoma roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: "Nabiy salollohu alayhi vasallam: "Robbim menga Makkining Bathosini oltin qilib berishni taklif qildi. Men "Yo'q, ey Robbim! Lekin bir kun to'yib, bir kun och bo'lganim yaxshi, deb uch yoki shunga o'xshash aytdilar va davomida, "Och qolsam Senga tazarru' qilib, Seni zikr qilurman. To'yan chog'imida Senga shukr qilib, hamd ayturman", - dedilar". Termiziyy rivoyat qilgan.

"Nahl" surasining 114-oyatida: "Bas (ey mo'minlar), Alloh sizlarga rizq qilib bergan narsalarning poklarini yeng hamda Allohga ibodat etuvchi bo'lsangiz, Uning ne'matiga shukr qiling", – deyilgan. Odam Alloh unga rizq qilib bergan halol-pok narsalarni yeyish bilan birga, Allohnинг ne'matiga shukr ham etadi. Bu esa, Allohga ibodat qilish doirasiga kiradi. Shuning uchun ham oyatda, "...agar ibodat etuvchi bo'lsangiz", – deyilmoqda. Demak, shukrona aytish ham ibodat o'rni o'tishligiga ishora qilinmoqda.

Demak, ne'matlar bardavom bo'lishi shukronalikka bog'liq. Ularning ziyoda bo'lishini xohlagan kishi uning shukrini ado etishi kerakligi zarur bo'ladi. Zero islom dinida shukrka buyuk ibodat sifatida qaraladi. Bandalarini hamisha va har qachon shukr qilishga buyurgan Alloh "Baqara" surasining 158-oyatida O'zini shukrni qabul qiluvchi deb atagan: "...albatta Alloh shukrni qabul etuvchi dono zotdir".

Aslida, amal qilmagan bandalarga ham Alloh karami kengligi uchun ularga ham o'zining marhamatini ayagani yo'q. Bu ham bir sinov. Yaratgan o'zining bandalarining shukr qilishlarini kutadi. Shunda ham shukrona qilmasalar, ana unda U O'zining azobini yuboradi. Bu haqida "Ibrohim" surasi 7-oyatining davomida shunday deyiladi: "Bordi-yu, noshukrlik qilsangiz, albatta, azobim (ham) juda qattiqdir"[1,256].

## NATIJALAR

Hayotimiz chek-chegarasiz moddiy-ma'naviy ne'matlar bilan o'ralgan. Ilm-ma'rifat, sog'lik, mol-davlat, farzand, qadr-qimmat singari in'omlar bilan siylangan. Bularning barchasi tafakkur va tadabbur qilishga undaydi. Shuningdek, insoniyat uchun "Ne'mat – baxtli farovon hayot"dir. Ne'mat yetganda uning shukrini unutish, musibat yetganda esa umidsizlikka uchrab, tug'yonga ketish zaif va

## FALSAFA

irodasiz kishilarning ishi. Bu haqda “Isro” surasining 83-oyatida shunday deyiladi: “Qachon (Biz) insonga (tinchlik, salomatlik, farovonlikni) in’om etsak, u (shukr qilishdan) yuz o’girib, o’z holicha ketur. Qachon unga (xastalik, kambag’allik kabi) biror yomonlik yetsa, noumid bo’lur”.

Ne’mat beruvchining maqsadidagi va unga mahbub bo’lgan narsani qilish amal deyiladi. Amalni ne’mat beruvchining ma’rifatidan hosil bo’lgan quvonch bilan qilinadi. Bu boradagi amal dil, til va a’zolarga bog’liq bo’ladi. Dil bilan shukr qilish barcha xalqqa yaxshilikni qasd qilish bilan bo’ladi. Til bilan shukr qilish Allohga hamdu sano aytish bilan bo’ladi. A’zolar bilan shukr qilish Alloh ne’matlarini U zotning toatiga ishlatish va ma’siyatiga ishlatmaslik bilan bo’ladi. Taqdir gardishi inson boshi uzra qay tomonga qarab aylanmasin, kishi o’zini munosib tutgan holda chin bandalik yo’li – shukronalikda mustahkam turishi lozim.

Ota-onasining shukronasini eshitib o’sgan bola hayoti davomida birovning mulkiga ko’z olaytiradigan, birovning mulkiga chang soladigan bo’lib o’smaydi. O’zining hayotini xoh jismoniy, xoh aqliy bo’lsin, peshona teri evaziga, halol mehnati bilan topgan mulki ustiga quradi, baxtli yashaydi, erkin nafas oladi, farzandlari ko’ziga kulib qaray oladi, ko’zini ulardan yashirmaydi. Bu esa chin mo’minga xos bo’lgan xislat bo’lib, xursandchilikda shukr qilib, musibat yetganda sabr qilishiga olib keladi.

Inson hayoti davomida duch keladigan har qanday holatni o’zining foydasiga burish, undan dunyo va oxirati uchun foya olish imkoniyatiga ega. Suhayb roziyallohu anhudan qilingan rivoyatda Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bu haqda shunday deganlar: “Mo’minning ishi ajoyib. Uning barcha ishi yaxshilikdir. Bu faqat mo’minga xos. Agar unga xursandchilik yetsa shukr qiladi, buning uchun unga yaxshilik bo’ladi. Agar unga zarar yetsa sabr qiladi, buning uchun unga yaxshilik yetadi”.

Xoja Ahmadjon Bobomurodning mazkur she’ri yuqorida fikrni tasdiqlaydi.

*Ahmado, ko’ngilga taskin ber, ibodat birla sen,*

*Bo’l hasad ahliga ibrat, sabru toqat birla sen.*

*Kasbi tosh otmoq alarning, behuda chekma fig’on,*

*Saqlagay Alloh O’zi. Duch kelsang ofat birla sen![2,13]*

Hayot, turmush tarzi haqida mushohada yuritsa to’silgan ne’matlarga nisbatan in’om etilganlari juda ko’pligini anglab yetiladi. Olayotgan har bir nafas, jismning sog’lomligi hech bir narsa bilan qiyoslab bo’lmaydigan darajadagi boylikdir. Biroq tanglik yetganda ne’matlarning barchasini unutib, betoqat bo’la boshlash, taqdirdan nolishdir.

## MUHOKAMA

Rivoyatlarda aytishchicha, hayotining tangligidan noliyotgan kishiga qarab bir donishmand: “Mana shu ko’zingni sotsang yuz ming dirham beraman”, debdi. Kishi unamabdi. “Ikki qo’ling uchun yuz ming dirham beraman”, deganda kishi yana ko’nmabdi. “Unda ikki oyog’ing uchun yuz ming dirham beraman”, deb jismidagi boshqa a’zolarini shu zayl birma-bir savdolashib ketibdi. Kishi barchasiga “Yo’q”, deb javob qaytaraveribdi. So’ngra donishmand “Senda yuz minglab dirhamlik boylik borligini ko’rdim. Sen bo’lsa muhtojman deb shikoyat qilmoqdasan”, deb dashnom bergen ekan.

Alloh bandalariga (shu jumladan, so’ramaganlarga ham) shu qadar ko’p ne’matlар berganki, ularni sanab tugatib bo’lmaydi. Bu haqda “Nahl” surasining 18-oyatida shunday deyiladi: “Agar Allohnинг ne’matlарини sanasangiz, sanog’iga yeta olmaysiz. Haqiqatan, Alloh kechirimli va rahmlidir”.

Alloh bandalarini behisob ne’matlаридан bahramand qilgan ekan, U o’z navbatida ana shu ne’matlarning shukrini ado etib borishlikka buyuradi. Shukrona aytish ham, aytmaslik ham bir tildan chiqadi. “Til – Allohnинг ulug’ ne’mati, ajib latif san’atidir. Garchi u jisman kichik bo’lsa ham itoati tufayli topadigan savobi yoxud itoatsizligi tufayli sodir etadigan gunohi juda katta. Chunki kufr ham, iymon ham faqat til guvohligida ayon bo’ladi. Kufr va imon esa toat va isyonning boshlanish hududlaridir”. Alloh bergen ne’matlарини katta-kichik demay, ularni shukrini bajo keltirish lozim. Agar bandalar shukr qilsalar, Alloh ularga ne’matlарини ziyoda qilishini va’da qildi va itoat qilsalar, bu ne’matlар davomiyligi va boqiyligining kafolatini berdi.

“Baqara” surasining 172-oyatida shunday deyiladi: “Ey imon keltirganlar! Allohgagina ibodat qiluvchi bo’lsangiz, sizlarga Biz rizq qilib bergen pokiza narsalardan yeb, Unga shukr qiling”[3,26].

## XULOSA

Xulosa o’rnida shuni ta’kidlash kerakki, inson shukr qilsa, rizqi yana ziyodalashadi. Bu haqida Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu shunday degan: “Ne’mat shukrga, shukr esa ziyodalikka

bog'langan. Modomiki banda shukr qilishda davom etar ekan, Alloh ham ziyoda qilishda bardavom bo'ladi" (Imom Bayhaqiy rivoyati).

Rasululloh sallolohu alayhi va sallam shukr haqida shunday deganlar: "Kim oziga shukr qilmasa, ko'piga ham shukr qilmaydi. Kim insonlarga tashakkur aytmasa, ulardan minnatdor bo'lmasa, Allohma ham shukr qilmaydi. Ne'matlar haqida gapirish – shukrdir. Uni gapirmaslik esa – noshukrlikdir. Jamoat bilan yurish – rahmatdir. Yolg'izlik esa – azobdir". (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari).

Har jabbada ibrat bo'lgan Rasululloh sallolohu alayhi va sallam bu borada ham namuna bo'lganlar. Allohnning suyukli habibi barcha go'zal amallarni o'zlarida mujassam etgan zot edilar. Shukr qilishda U zotga yetadigan biror bir kishi topilmasligiga shubha yo'q. Sababi, Allohma duolari ijobat bo'ladigan kishi bo'la turib, Allohdan ko'p mol-dunyo berishini so'ramagan edilar. Balki, Alloh bergen rizqqa qanoat qilib yashaganlar. Ochlikdan qorinlariga tosh bog'lab yurganlari haqida rivoyatlar mavjud. U zot shunday holatda ham shukr qilgan bo'lsalar, hozirgi to'kin- farovonlik davrida insonlar shukrnini yanada ziyoda qilishga e'tibor qaratishlari lozim.

Demak, bugun dunyoda bo'layotgan notinchiliklar, iqtisodiy-siyosiy nizolar, noinsoniy xunrezliklar va millatlararo kelishmovchiliklarni yoki ba'zi mantaqalardagi xalqlarni bir burda nonga zor bo'layotganlarini ko'rib har bir inson O'zbekistondagi tinch-osuda farovon hayot va to'kin dasturxon uchun Allohma cheksiz shukronalar aytishi lozim bo'ladi. Zero, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar: "Sizlarga bir kishi yaxshilik qilsa, albatta, uni mukofotlang, agar mukofot uchun biron-bir narsa topa olmasangiz, uni chiroyli duo qiling".

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири // таржима ва изоҳлар муаллифи Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси. 2018.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 4-том. 2008. –Б. 5.
3. Тохир Малик. Одамийлик мулки. – Тошкент: Шарқ нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2012. –Б. 926.
4. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Фофор Ғулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. 2010. –Б. 638.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллый энциклопедияси давлат илмий нашриёти. 3-том. 2007. –Б. 36.
6. Ҳожа Аҳмаджон Бобомурод. Инсон одоби ва ахлоқи. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. 2019. –Б. 13.
7. Абу Ҳомид Ғаззолий. Тил оғатлари. – Тошкент: Шарқ нашриёт- матбаа акциядорлик компанияси Бош таҳририяти. 2017. –Б. 6.